

**"TASDIQLAYMAN"**

Urganch innovatsion universiteti  
ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori, dotsent



M.Masharipov

"fevral" 2025-yil

Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining **"Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhamud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi** munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Urganch innovatsion universitetida **"ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI"** mavzusida **2025-yil 14-fevral** sanasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman

### **HISOBOTI**

**1. Anjuman mavzusi: "Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'rni".**

**2. Anjuman maqomi:** Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.

**3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos:** Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining "Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhamud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to'g'risida"gi 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli bayoni

**4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:**

– **Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk davlat arbobi sifatida** – Boburning jahon tarixida tutgan o'rni va roli;

– **Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'rni** – Boburiylar sulolasining tashkil topishi va ularning tarix sahnasiidagi ahamiyati;

– **Bobur falsafasi va Uchinchi Renessans g'oyasi** – Uyg'onish davri madaniyati va Bobur tafakkurining bugungi zamонавији jarayonlarga ta'siri;

– **Zahiriddin Muhammad Bobur va Sharq sivilizatsiyasi** – Bobur davri ilmiy-falsafiy maktablarining boshqa Sharq mutafakkirlari bilan ijodiy aloqalari;

– **Bobur asarlarining tarjima va tadqiq etilishi** – Bobur ijodiy merosining xorijiy tillarga tarjimasi va dunyo adabiyotshunosligidagi o'rni;

- **Uchinchi Renessans va yoshlar tarbiyasi** – Bobur merosining yosh avlod ma'nayiy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni, ta'lim va madaniyat taraqqiyotiga ta'siri;
- Uchinchi Renessans jarayonida Bobur merosining tutgan o'rnini aniqlash;
- Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosini chuqur ilmiy o'rganish va tahlil qilish;
- Yosh olimlarni Bobur merosini o'rganishga jalg qilish va ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash;
- Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini tahlil qilish bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar yaratish;
- Zamonaviy texnologiyalar yordamida Bobur asarlarini ommalashtirish va targ'ib qilish.

#### **5. Muhokama qilingan muammolar:**

- Zahiriddin Muhammad Boburning jahon tarixi sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi;
- Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o'rni;
- Boburning siyosatdagi o'rni va tahlikali davrdagi oqilona qarorlari;
- Bobur ilmiy merosini mahalliy va xorij tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilishi;
- Boburiylar sulolasi davrida diniy munosabatlar;
- Mustaqillik yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ilmiy merosiga bo'lgan e'tibor.

#### **6. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.**

##### ***Ilmiy samaradorlik:***

– **Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy, ilmiy va ma'rifiy merosi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar ochilishi:** Anjuman davomida tadqiqotchilar tomonidan ilgari e'tibordan chetda qolgan arxiv materiallari va asarlar o'rganilib, yangi ilmiy natijalar taqdim etiladi.

– **Akademik hamkorlikni kuchaytirish:** Zahiriddin Muhammad Boburga oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha mahalliy va xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlanadi.

– **Zahiriddin Muhammad Bobur merosi bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlar** – Uning ijodiy va falsafiy qarashlari zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqiladi.

– **Bobur asarlarini tarixiylik va ilmiy jihatdan chuqurroq tadqiq etish** – Bobur asarlarini hozirgi kundagi ahamiyati va uning tarixiy-ilmiy tahlili kengayadi.

– **Bobur merosining raqamlashtirilishi va yangi nashrlari** – Uning asarlari zamonaviy texnologiyalar yordamida keng ommaga taqdim etiladi.

##### ***Ijtimoiy samaradorlik:***

– **Yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida Bobur hayoti va uning asarlarining o'rni oshadi** – Uning ijodi orqali yoshlarga milliy g'urur va qadriyatlar singdiriladi.

– **Madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib etish kuchayadi** – Bobur ijodi asosida yangi madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

– **Tarixiy shaxslarni xalqaro miqyosda nufuzini oshirish** – Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasiga oid tadqiqotlar orqali jahon ilmiy doiralarida e’tibor kuchayadi.

– **Tarixiy-madaniy soha bo‘yicha xalqaro hamkorlik rivojlanadi** – O‘zbekiston tarixi va jahon tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlar kuchayadi.

#### *Iqtisodiy samaradorlik:*

– **Turizm sohasida rivojlanish** – Boburga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida madaniy va ziyyarat turizmi yo‘nalishlari rivojlanadi.

– **Ilmiy grantlar va loyihalar jalg qilinadi** – Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi tarixini tadqiq qilish bo‘yicha xalqaro va mahalliy grantlar qo‘lga kiritiladi.

– **Kitob va ilmiy nashrlar bozori kengayadi** – Bobur asarlari va u haqidagi ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda nashr etilib, ilmiy nashriyotlarning faoliyati faollashadi.

– **Zamonaviy texnologiyalar va media orqali tarixiy-adabiy merosni tijoratlashtirish** – Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi bo‘yicha filmlar, animatsiyalar va interaktiv media loyihalari yaratilib, madaniy mahsulotlar ishlab chiqariladi.

– **Ta’lim tizimida yangi kurslar joriy qilinadi** – **Zahiriddin Muhammad Bobur** va boburiylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan yangi darslik va qo‘llanmalar tayyorlanib, ta’lim sohasi rivojlantiriladi.

Anjuman natijalari qisqa va uzoq muddatda milliy va xalqaro miqyosda ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan samaradorlik olib kelishi kutiladi.

### **7. Anjumanda soha mutaxassislarining, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi:**

Mazkur Respublika anjumaniga universitet mutaxassislari, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Toshkent shahridagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari, tashkilotlarning yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va talabalar ishtirok etishdi.

### **9. Anjumanni o‘tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarning ishtiroki:**

Anjumanda universitetning yetakchi mutaxassislari, boshqa oliy ta’lim tashkilotlari yetuk olimlari, professor-o‘qituvchilari ishtirok etishdi. Anjuman 14-fevral soat 10:00 da boshlanib, shu kuni 12:30 da o‘z nihoyasiga yetdi.

Anjumanni moderator sifatida “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri Maxmudov Umrbek olib bordi.



Maxmudov Umrbek anjumanni ochib berish uchun so‘zni Urganch innovatsion universiteti rektori Ishmuratov Madamin Jumaboyevichga berdi. Rektor anjumanni qay darajada ilmiy sohada muhim mavzuda tashkillashtirilayotganligini e’tirof qilib quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdi:

– Buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 542 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan bugungi anjumanimiz barchamiz uchun ulkan sharafdir. Ushbu anjuman Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o‘rni, ularning beباho ma’naviy merosini o‘rganish, uning jahon adabiyotidagi o‘rni va zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini muhokama qilishga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z ijodi va falsafiy qarashlari bilan o‘z davrining haqiqiy renessans namoyandalaridan biriga aylangan. Uning asarlari nafaqat turkiy adabiyot ravnaqiga, balki jahon adabiyoti rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Boburning “Boburnoma”si Sharq adabiyoti an’analarini mustahkamlab, jahon adabiyotidagi epik poema janrining yuksalishiga zamin yaratdi. Uning badiiy merosi g‘arbiy va sharqiy adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqr o‘rganilib, hozirgacha turli tillarga tarjima qilinmoqda.

Bugungi kunda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi Bobur merosini yanada chuqr o‘rganish va keng targ‘ib etish zaruratini yaqqol namoyon etmoqda. Zero, Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning tarixiy hamda ilmiy asarlari va falsafasi bugungi kun yoshlariga ma’naviy boylik, intellektual salohiyat va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda Boburshunoslik sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan Vahhob Rahmonov, Zokirjon Mashrabov, Naim Karimov, Vadud Mahmud, Abduqodir Hayitmetov, Burobiya Rajabova, Husaynxon Yahyo va Botirxon Valixo‘jayevlarni alohida e’tirof etish lozim. Ular Boburning siyrati, ma’naviy merosi, badiiy uslubi va adabiy-ijtimoiy faoliyatini har tomonlama tadqiq etib, ilmiy adabiyotga katta hissa qo‘shtalar.

Naim Karimov o‘z tadqiqotlarida Boburning insonparvarlik g‘oyalari ni ochib bersa, Abduqodir Hayitmetov uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shtalar hissasini atroficha tahlil qilgan. Botirxon Valixo‘jayev esa Bobur asarlarining poetik xususiyatlarini tadqiq etish bilan mashhur. Bu tadqiqotlar natijasida Boburning badiiy merosi nafaqat mahalliy, balki jahon miqyosida ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.



Boburning ijodi jahon adabiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilinib, xalqaro miqyosda ham keng o‘rganilmoqda. Boburning g‘oyalari va she’riyatdagi mahoratlari jahon adabiyotidagi ko‘plab shoir va yozuvchilarga ilhom manbayi bo‘lgan.

Boburning inson haq-huquqlari, adolat va ma’rifatparvarlik borasidagi fikrlari, ayniqsa, Renessans davri mutafakkirlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Uning asarlaridagi umuminsoniy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi ma’no-mohiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Uchinchi Renessans g‘oyalari hayotga tatbiq etilayotgan bir paytda, Bobur merosi bu jarayonning muhim qismiga aylanmoqda. Uning ma’naviy merosi va ijodiy falsafasi yosh avlodni tarbiyalash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilmoqda.

Boburning asarlaridagi bilimga intilish, ma’rifatga bo‘lgan hurmat, insonning ichki kamolotiga e’tibor bugungi kun talablari bilan hamohangdir. Uning ijodi Uchinchi Renessansning ma’naviy asoslarini mustahkamlaydi, yoshlarni Vatanga muhabbat, adolat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Boburning boy tarixiy-ma’naviy merosi va uning jahon adabiyotiga qo‘shtalar ulkan hissasi biz uchun faxr manbayi hisoblanadi. Uning asarlari va falsafasi nafaqat o‘tmish, balki bugungi kun va kelajak uchun ham ahamiyatlidir. Boburshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu buyuk allomaning merosini yana-da

chuqurroq o'rganish va uning asarlarini yangi avlodlarga yetkazishda muhim o'rinni tutadi.

Bugungi anjumanda Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi bo'yicha olib borilayotgan xalqaro tadqiqot ishlari, uning jahon adabiyotida tutgan o'rni hamda g'oyalarini yosh avlod ongiga qanday singdirish mumkinligi haqida fikr almashamiz.

Ushbu ilmiy-nazariy anjumandagi barcha taqdimotlar va muhokamalar Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi merosining yangi qirralarini ohib berishga xizmat qilishiga ishonaman. Barchangizga ijodiy barkamollik va ilmiy muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat! – deya so'zini yakunladi.

Moderator ustozning bildirgan fikrlari uchun rahmat aytib, so'z navbatini Urganch innovatsion universiteti prorektori, PhD., dotsent Mansurbek Masharipovga berdi.

U o'z ma'rzasida Bobur va uning ijodiy faoliyati to'g'risida quyidagilarni bayon qildi: O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lган, diniy ta'llimotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo'ldi, xususan, ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo'lмаган. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning "Topmadim" radifli g'azali va "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq. Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yor-u diyor sog'inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rinni tutadi. Uning g'azal va ruboilarida, tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. Boburning o'z she'riy asarlarini to'plab, devon holiga keltirgan sanani ko'rsatuvchi aniq tarixiy ma'lumotlar ma'lum emas. Ammo "Boburnoma"ning **1518-19-yillar** voqealari bayoniga bag'ishlangan faslida Bobur



devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu’ she’ri, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur “Mubayyin” asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan “Mubayyin”da ayni zamonda namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari “Boburnoma” ustidagi ijodiy ishini **1518—19-yillarda** boshlagan. Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, “Xatti Boburiy”, shuningdek, musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. “Xatti Boburiy”da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Moderator keyingi so‘z navbatini Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, t.f.d. Mirsodiq Is’hoqovga berdi. Ma’ruzachi “Boburiylar sulolasining jahon tarixida tutgan o‘rni” mavzusida ma’ruza qildi.

**Boburiylar — Hindistonda (1526—1858)** hukmronlik qilgan turkiy sulola. Bobur va uning avlodlari Temuriylar sulolasining vakili, Amir Temur avlodи Zahiriddin



Muhammad Bobur asos solgan. Chet ellarda, mamlakatimizda, hatto Hindistonda ham Boburni va uning avlodlarini “buyuk mo‘g‘ullar” deb atash odat bo‘lib qolgan. “Buyuk mo‘g‘ullar” degan ibora Chingizzon va undan keyingi mo‘g‘ul qoonlari (O‘qtoy qoon, Guyuk qoon, Munka qoon)ga taalluqli

bo‘lib, Buyuk mo‘g‘ullar aslida Bobur avlodlaridir. Ular tarixiy hujjalarda o‘zlarini “boburiy mirzolar” deb yuritishgan. V.V.Bartold dunyoda tarqalgan “buyuk mo‘g‘ullar” iborasining xato ekanligini ko‘rsatib: “Yevropaliklar Temurni va uning o‘g‘illari hamda nabiralarini mo‘g‘ullardan tarqalgan deb hisoblab, (Bobur) sultanati uchun “buyuk mo‘g‘ullar” degan nom to‘qidilar”, - deb yozadi. Bu ibora esa Yevropadan Hindistonga “ko‘chib” kelib, hindlar orasiga inglizcha kitoblar vositasi bilan tarqalgandir. So‘nggi

yillarda “buyuk mo‘g‘ullar” degan xato ibora o‘rniga “boburiylar” iborasi qo‘llanila boshladiki, bu ibora tarixiy haqiqatni to‘g‘ri aks ettiradi. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qildilar. Sulola asoschisi Bobur (1483-yilda tug‘ilgan) otasi tomondan Amir Temurning (1336–1405) va ona tomondan Chingizxonning (1227-yilda vafot etgan) avlodi bo‘lgan. Bobur va uning o‘g‘li Humoyun Boburiylarning vakillari: Zahiriddin Muhammad Bobur (1526-30), Humoyun (1530-1539;1555-56), Akbar (1556-1605), Jahongirshoh (1605-27), Shoh Jahon (1627-1658), Avrangzeb Olamgir (1658-1707), Bahodirshoh I (1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farrux Siyar (1713-19), Muhammadshoh (1719-1748), Ahmadshoh (1748—1754), Olamgir II (1754-1759), Shoh Olam II (1759-1806), Akbar II (1806-1837), Bahodirshoh II (1837-1858).

Moderator keyingi navbatni Buxoro davlat universiteti professori, t.f.d. Shodmon Hayitovga berdi. U “Zahiriddin Muhammad Bobur davlat arbobi sifatida” mavzusida ma’ruza qildi.



Buyuk Amir Temurning beshinchı avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilda Andijonda tug‘ilgan. U ko‘plab iste’dodlarga ega bo‘lgan inson edi: Hindiston va Afg‘onistonni zabt etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, lirk asarini sharq she’riyatining yorqin asarlari bilan taqqoslash mumkin bo‘lgan buyuk shoir, buyuk yozuvchi, geograf va tarixchi, biolog. Uning qalbida ajdodlari va zamondoshlarining ijodi alohida o‘rin egallagan. Javaharla’l Neru, Mahatma Gandhi kabi hind davlat arboblari va olimlari Bobur (1483-1530) hamda Boburiylar nafaqat Hindiston uchun, balki taraqqiy etgan dunyo tarixida ham katta ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etdilar. Bobur hamisha el-yurt, xalq uchun mas’uliyatni his etib kelgan. U o‘z oldiga Temuriylar davlatini barpo etish, Samarqand atrofida markazlashgan imperiya tuzish, shu tariqa Sohibqironning orzusini ro‘yobga chiqarish vazifasini qo‘ydi. Ammo uning istaklari amalga oshmadidi. Taqdir irodasi bilan Qobulda taxtga chiqdi, Hindistonda

buyuk Boburiylar imperiyasiga asos soldi. Temuriylar sulolasining buyuk vakillari hisoblanmish boburiylar tarixi hind xalqlari tarixida o‘zining munosib o‘rniga ega. G‘arbdaqgi boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o‘zining 1986- yilda Dehlida chop etilgan “Tovus toj yoki mo‘g‘ullar sultanati qismati” kitobida Boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik faoliyatiga yuksak baho beradi: “Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisol bir tovus bo‘lsa, o‘sha ko‘p ming yillik tarixdagi Boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojisidir”. Hindistonda davlatchilik siyosatini mustahkamlash, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo‘linib ketgan yurtni yaxlit davlatga aylantirish, o‘lka viloyatlarini markaziy sultanatga birlashtirish kabi maqsadlarda Bobur Mirzo Hind zamini sari harbiy yurishlarini amalga oshirdi. 1525-yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistonni egallash maqsadida Ibrohim Lo‘diyga qarshi jangga kirdi.

1525-yil kech kuzda Bobur Panjobni bo‘ysundirdi, 1526-yilda Panipat qishlog‘i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo‘shini Dehli sultonni Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy qo‘shini ustidan g‘alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatdi. 1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultonni Ibrohim Lo‘diyning 100 ming kishilik qo‘shinini o‘zining 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. 1527-yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo‘shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindiston bo‘ysundirdi. Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, pochta-aloha sohasiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitekturada Movarounnahr me’morlik uslublarini qo‘lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi. Buyuk Boburiylar imperiyasi davri nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki Hindistonni ulkan me’moriy yodgorliklar, noyob adabiy-tadqiqot ishlari bilan boyitdi. Hindistonning Buyuk Boburiylar sulolasiga qarashli me’moriy obyektlari – Fotihpur-Sikridagi Shoh saroy majmuasi, Agra, Dehli va Lahor qirg‘oqlari saroylari va bog‘lari kabilardir. Boburiylar tomonidan yaratilgan bog‘larning eng ko‘zga ko‘ringan namunalari – Kashmirdagi Shalimar (1620) va Lahor bog‘lari (1642), Anantag yaqinidagi Achabal bog‘i, Chashma Shahi Bagh (1632), Kashmirdagi Nishat Bagh bog‘i (1633), Lahor, Dehli, Agra qirlari ichidagi ko‘plab bog‘lar; Qobuldagagi maqbara va o‘nlab bog‘lar. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni qo‘lga kiritishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, me’morchilik va madaniyatning qator sohalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasriy yozuvchi va shoir sifatidagi layoqati hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan keng e’tirof etilmoqda. Tarixchi, iste’dodli so‘z san’atkori, davlat arbobi va sarkarda Bobur vafotidan to‘rt asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi, ammo uning nomi boqiyidir. *Hindiston boburiylardan bo‘lgan Humoyun, Akbarshoh, Jahongirshoh, Shohjahon davrlarida, ayniqsa, gullab-yashnadi, hududlari kengaydi. Xususan, Akbarshoh va uning nabirasi Shohjahon hind xalqining qalbidan chuqur joy oldilar.* Boburshohning yuragi ba’zan Vatanni – Andijonni qo‘msab tursa ham, vaqt soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma’muriy ishlarni odilona hal qilish bilan

o'tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo'lgan tarixiy obidalarni buniyod etdilarki, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lşak, Bobur va Boburiylar xalqimizning buyuk farzandlaridir. Ular o'zlarining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar.

Moderator keyingi ma'ruza uchun navbatni Urganch innovatsion univeristeti fakultet dekani PhD., dots. Bahodir Satimovga berdi. U "Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik faoliyati" mavzusida ma'ruza qildi.

Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur sultanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494-yil iyul)dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5—6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rniga Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysung'ur o'tiradi.

1495-96-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi.

1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallyaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axxi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o'tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallahga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700—800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq kishilar (200—300) bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallah tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng (1498-yil iyun) uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida



“Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini...” qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi. Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500). Biroq shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdoi edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500-yil kech kuzida o‘z qo‘smini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ohib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501-yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘sminlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501-yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi. Bobur Temuriylar sultanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘smini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi.

1501-1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi. Bobur 200—300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘sinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman, Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasb-u hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. “Bog‘i Shahroro”, “Bog‘i Jahonoro”, “O‘rtabog‘”, “Bog‘i vafo” va “Bog‘i Bobur” kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506-yil bahorda vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod ettirgan “Bog‘i Navro‘ziy”ga dafn etiladi. Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli

hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistonidagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katga obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniyarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirota otlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirota boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalarini amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar. 1507-yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosionning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabit etish uchun yurish boshlaydi. Ammo Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrga qo‘shin kiritib shayboniylargacha ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511-yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktabr boshida esa Samarcandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniyalar ra’yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512-yil 28-aprelda Ko‘li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512-yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal’asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512-yil 24-noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabit etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526-yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli Boburiylar sulolasiga asos soladi.

Moderator navbatni Urganch innovatsion universiteti dotsenti, PhD. Dilfuza Atayevaga berdi. U “Mustaqillik yillarida Bobur va Boburiylar sulolasining xotirasini tiklanishi” mavzusida ma’ruza qildi.



Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ (“Bog‘i Bobur”) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasiga “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi buniyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuasida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdag‘i istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi. Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyshtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va Boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z.Mashrabov, S.Shokarimov: “Asrlarni bo‘ylagan Bobur”; S.Jalilov: “Boburning Farg‘ona davlati”, “Bobur va Andijon”; Qamchibek Kenja: “Hind sorig‘a”; X.Sultonov: “Boburning tushlari”, “Boburiynoma”; R.Shamsuddinov: “Boburiylar izidan”, “Boburiylar sulolasi”; T.Nizom: “Uch so‘z”), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: “Bobur izidan”, “Muqaddas qadamjolar”; T.Ro‘ziyev: “Bobur salomi”, “Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya”; T.Hamidov: “Iftixor” va h.k.) yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi

(Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan (O'zbekiston) shaharlarida bo'limlari mavjud. 1998-yil jamg'armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimkul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G'aybulloh as-Salom, Ne'matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg'oniston), Ma'murjon To'xtasinov, Ravshan Mirtojiyev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzayevga berildi.

Moderator keyin so'z naybatini Urganch innovatsion universiteti magistranti Sabirova Saodatjonga berdi. U "Отношение к женщинам индии в период правления династии бабуридов" mavzusida ma'ruza qildi.

Ваше изложение о положении женщин в индийском обществе в домогольский и пост-могольский периоды действительно подчеркивает сложность и многообразие их ролей и статусов. Это тема, которая требует глубокого анализа, учитывая различные культурные, социальные и исторические контексты. В домогольский период женщины действительно имели определенные права, и их статус мог варьироваться в зависимости от региона и касты. Это время характеризовалось большими возможностями для женщин в некоторых общинах, что контрастирует с более поздними периодами, когда патриархальные структуры усиливались. С приходом Великих Моголов, как вы отметили, произошли значительные изменения. Несмотря на многообразие культур и религий в империи, общая тенденция к ограничению прав женщин стала более заметной. Это связано не только с исламским влиянием, но и с внутренними социальными изменениями, которые привели к усилению кастовой системы и патриархата. Фигуры, такие как Разия Султан и Гульбадан Бегум, действительно являются яркими примерами женщин, которые смогли преодолеть ограничения своего времени. Разия Султан, ставшая правительницей, продемонстрировала, что женщины могут занимать высокие посты и быть эффективными лидерами. Ее правление стало исключением в патриархальном обществе, где власть традиционно принадлежала мужчинам. Гульбадан Бегум также представляет собой интересный пример. Ее образование и способность писать свидетельствуют о том, что женщины могли быть не только хранительницами домашнего очага, но и активными участниками культурной жизни. Ее биография Акбара является важным историческим источником, который дает уникальную перспективу на события того времени. Разия правила во времена расцвета Индостана на севере Северной Индии. Это было время династии мамлюков. Это было время большой неопределенности, и удержать власть было непросто. Первым экстраординарным поступком Разии Султан было выдвижение себя на престол. Поэтому, когда ее отец Илтутмиш умер, а он пробыл на троне 25 лет, его второй сын стал правителем автоматически, так как старший сын уже умер. Но он был очень плохим правителем, и его мать начала вмешиваться в политику. Разия обратилась к армии. Она выдвинула себя на правление, что было необычно, так как, похоже, ее мало заботило то, что она

была женщиной. Все биографы, писавшие о ней в свое время, говорили, что она была великой правительницей, справедливой правительницей: она несла справедливость, приносила стабильность и мир в империю, и ее единственным “недостатком” было то, что она не мужчина. Важно отметить, что несмотря на существующие ограничения, многие женщины находили способы реализовать свои таланты и способности. Это подчеркивает необходимость пересмотра традиционных исторических нарративов, которые часто игнорируют или умаляют вклад женщин в общественную жизнь. Таким образом, ваше исследование подчеркивает важность понимания женских историй в контексте индийского общества и необходимость более глубокого анализа их роли в истории.

Moderator navbatni Urganch innovatsion universiteti talabasi Otaboyeva Ro‘zaga berdi. U “Boburiylar davrida gender tenglik masalalari” mavzusida ma’ruza qildi.



Shonli tariximizga nazar tashlasak, Sohibqiron Amir Temurning ayollarga nisbatan mehribon va nihoyatda shafqatli bo‘lgani haqida ko‘plab manbalarda ma’lumot keltirilgan. U hayotda ayollarning mehr-muruvvatiga va jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan. Bunga misol sifatida farzandlari va nevaralari tarbiyasini oqila Saroymulkxonimga ishonib

topshirganini ko‘rsatish mumkin. Millatimiz faxri bo‘lmish Hazrati Mirzo Bobur ham buyuk ajdodi Amir Temur an’analarini davom ettirib, ayollarga bo‘lgan ehtiromi bilan ajralib turardi. Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk shoir, shoh va markazlashgan davlat barpo etgan yirik davlat arbobi sifatida shakllanishida ayollarning – onasi Qutlug‘ Nigorxonim, buvisi Esondavlatbegim va keyinchalik malika Mohibeginning o‘rni juda katta bo‘lgan. Ingliz sharqshunosi va biografik asarlar muallifi Xarold Lamb o‘zining “Bobur – yo‘lbars” asarida Boburning onasi haqida shunday yozadi: “Boburning onasi otasiga qaraganda kamtarona hayot kechirar edi. U otasi, Toshkent xoni Yunusxonning istagiga ko‘ra, Umarshayx Mirzoga nikohlab berilgan edi. Malikaning ixtiyorida uning ko‘ngilxushligi uchun xizmat qiladigan san’atkorlar – hofiz va hofizalar bo‘lsa-da, u unchalik dilmushlikka berilmas, asosan bosh malika sifatida bolalar tarbiyasi hamda saroydagagi ichki ishlarni nazorat qilib turardi”. Ko‘rinadiki, Qutlug‘ Nigorxonim farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, Bobur ona tomonidan buvisi Esondavlatbegim haqida “Boburnoma”da hurmat bilan shunday yozadi: “Xotinlar orasida ray va tadbirdarda mening ulug‘ onam Esondavlatbegimcha kam bo‘lur edi. U nihoyatda oqila va uzoqni ko‘ra biladigan dono ayol edi. Ko‘p muhim ishlar uning maslahati bilan amalgalashirilardi”. Boburning qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarida otasining atrofidagi ayollarga bo‘lgan ehtiromi va mehribonligi haqida shunday yozadi: “O‘n

beshta podshohning xazinasi otam hazratlarining qo‘liga tushdi. Hind amirlari o‘tgan podshohlarning xazinasini birovga taqsimlash janjalga sabab bo‘lishi mumkin, deb e’tiroz bildirishgan ekan. Otam hazratlari Xoja Kalonbekka shunday deb tayinlabdilar: Siz bu sovg‘alarni keksa amma va xolalarimga, opa-singillarimga va haramdagi har bir ayolga olib borib berasiz. Men sizga bergen ro‘yxat asosida sovg‘alarni tarqatib berasiz. Siz devonim turgan joyda har bir malika uchun maxsus uy qurdirasiz. Uning devorlarini yaxshilab bezatasiz va ziyofat uchun mo‘ljallangan joy tayyor bo‘lgach, ular ana shu ziyofatda bizning g‘alabamizni nishonlab, bizning haqimizga duo qiladilar”. Shuningdek, asarda uning farzandlariga bo‘lgan mehr-muhabbati va e’tiborini ham ko‘rishimiz mumkin. Gulbadanbegim shunday yozadi: “Men podshoh otamning oyoqlari ostiga o‘zimni tashladim. Otam mendan ko‘pgina savollar so‘radilar va meni bag‘riga bosib, ancha vaqt quchoqlarida ushlab turdilar. Men bunday mehribonlikdan shunchalik baxtiyor bo‘ldimki, bundan ortig‘ini tilash insofdan bo‘lmas edi. Xulosa shuki, bugun biz e’tibor qaratayotgan jamiyatda gender tenglikni ta’minlash masalasi ajdodlarimiz yashagan davrda ham dolzarb bo‘lgan. Ayolda yaratuvchanlik, tinchlikka intilish, himoya qilish va asrash kabi hissiy fazilatlar namoyon bo‘lgani yaqqol seziladi. Haqiqatan ham, vatanparvarlikni, ota-onaga, do‘stilarimizga va yaqinlarimizga mehr-muhabbatni buyuk Boburdan o‘rganishimiz zarur. Ayniqsa, uning ayollarni hurmat qilishi, ularning qadriga yetishi yoshlar uchun oliyjanoblik namunasidir. Bugungi kunda gender tenglik masalasi davlat tomonidan ham qonuniy jihatidan himoyalab qo‘yilgan. Ushbu prinsipni hayotga tatbiq etishda xotin-qizlar va erkaklarga ta’lim olishda, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tishda, mehnat faoliyatida teng huquqli imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moderator so‘z navbatini Urganch innovatsion universiteti talabasi Hilola Qo‘ziboyevaga navbat berdi. U “Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotga qo‘shgan hissasi va “Yaxshilig” g‘azalidagi axloqiy masalalar” mavzusida ma’ruza qildi.



Buyuk davlat arbobi, so'z san'ati va adabiyotining yorqin namoyondasi, shuningdek, Boburiylar sulolasining asoschisi. U O'rta Osiyo, Hindiston va Janubiy Osiyoda o'zining siyosiy, ijtimoiy va madaniy faoliyati bilan mashhur bo'lgan. Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. Insoniyatning adabiyotga mansub buyuk farzandlari safida shahanshoh va shoir, mislsiz adib va tarixchi Zahriddin Muhammad Bobur o'z o'rniga ega. Kishilar tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari beqiyos inson juda kam uchraydi.

Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi. She'riyat uchun xos bo'lgan bir necha zaruratlar: jozibali badiiy san'atlardan me'yorida ustalik bilan foydalanish sehrgarligi va ehtiros jo'shib turgan rangin tuyg'ular talqini Boburona samimiy she'riyat fazilatlaridir. Buning ustiga, uning mumtoz she'riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi.

U ona shahri, Vatani sog'inchalarini she'rda ifodalar ekan, Hindiston shahanshoi beixtiyor o'zining andijonlik g'aribligiga kitobxon e'tiborini tortadi:

*Ne yerda bo'lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,  
G'aribingg'a tarahhum aylagilkim, andijoniydur.*

Shoirona yurtsevarlik, vatanfidoyilik Bobur shaxsida shunchalik tantana qiladiki, buyuk imperator Bobur endi Andijondan yiroqlikni, garchi bu martaba Hindiston taxti bo'lsa ham, qismatdagi yuzi qarolig', deb hisoblaydi.

Bobur she'riyatini juda sevgan va uning o'ziga xos bir ifodasi bo'lgan shaxs edi. U shoir sifatida nafaqat o'z zamonasining, balki butun Sharqiy adabiyotning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Bobur she'riyatiga bo'lgan muhabbat va uning she'r yaratishdagi yondashuvi bir necha jihatda ko'rindi. Bobur she'riyatida falsafiy o'zini anglash va hayotning ma'nosini izlash uslubi mavjud. U o'z she'rlari orqali zamonning o'tkinchilagini, insonning noaniqliklarini va hayotning maqsadlarini ko'rsatadi. She'rlarida odam va tabiiy dunyo, inson va zamon o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tasvirlashda o'ziga xos yo'nalishga ega. Bobur o'z she'riyatini nafaqat o'zbek tilida, balki turkiy va fors tillarida ham yaratgan.

Zahriddin Muhammad Bobur o'zining "Yaxshilik" g'azalida yaxshi va yomonlik, dunyodagi insonlarning qiyinchiliklari va chinakam yaxshilikni qadrlash haqida o'z fikrlarini bayon etgan. G'azalda Bobur ko'ngilni yaxshi ishlar qilishga chaqiradi, ammo u buni amalga oshirishning ham o'ziga xos qiyinchiliklari va sinovlari borligini tan olib, yaxshilikni faqat o'z ichida, ruhiy xotirjamlikda izlaydi.

She'rda jamiyatdagi yomonlik va buzg'unchiliklarni ko'rib, insonni o'z maqsadi va axloqi jihatdan faqat yaxshilikka chaqirishni ta'kidlaydi. Ayniqsa, zamon va uning axloqiy holatidan shikoyat qilish o'rniga, yaxshilikni ilgari surish va uni boshqalarga yoyish kerakligi haqida so'z yuritadi.

Anjuman yakunida barcha ishtirokchilarga sertifikatlar taqdim etildi.





Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo‘limi boshlig‘i

A.Abdullayev

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va  
pedagogika fakulteti dekani

dots. B.Satimov

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi  
mudiri

PhD. U.Maxmudov